

ARAB TILIDAGI MAKONNI BILDIRUVCHI BIRLIKLAR LINGVOPOETIK VOSITA SIFATIDA

Karimova Munira Bahodir qizi

Toshkent davlatsharqshunoslik universiteti

Mustaqil izlanuvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22763031>

Qabul qilindi: 8-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 14-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 15-sentabr 2026-yil

Zamonga oid birliklarni o’rganish matnning lingvistik tahlilida muhim ahamiyat kasb etganidek yana bir qator birliklar ham juda dolzarb mavzular sanaladi. Matn tarkibida yana bir guruh so’zlar borki, ular ham asarning poetik xususiyatida alohida o’ringa ega. Bu guruh – makon tushunchasini anglatuvchi komponentlar sanaladi.

“Makonni bildiradigan leksemalar ham matnni shakllantiruvchi vosita bo’la oladi. Odatda yozuvchilar voqea sodir bo’layotgan makonni batafsil tasvirlashga harakat qiladilar. Makon ma’noli leksema keltirildimi, albatta uning tavsifi ham beriladi. Shu tarzda matn yuzaga keladi. Gaplar o’zaro kontakt va distant aloqaga kirishadi”¹.

Muallif makonga doir birliklarni matnda ishlatishga tabiiyki ehtiyoj tuyadi.

Semantik kategoriyalar qatorida turuvchi “makon” kategoriyasiga nisbatan tilshunoslikda “lokum” atamasi qo’llaniladi.

“Lokum – (lot. locus) bu nutqda ifodalangan voqea-hodisa, predmet yoki harakatning makon bilan bog’liqligini bildiruvchi semantik kategoriya, ya’ni “qayerda?”, “qayerga?”, “qayerdan?” kabi savollarga javob beruvchi makon ma’nosi”².

Tilda makonni bildiruvchi so’zlar ot, ravish, sifat va olmosh so’z turkumiga oid birliklar bilan ifodalanadi. Bu so’z turkumlariga oid so’zlar makrosistemalar va mikrosistemalarga ajraladi. Makonni bildiruvchi komponentlar asosan mikrosistemani tashkil etadi.

Arab tili nuqtayi nazaridan makonga doir birliklar asosiy uch guruhga ajraladi:

- ظرف المكان – makon zarflari;
- اسم المكان – makon ismlari (makon ma’nosini beruvchi mustaqil so’zlar);
- التركيب الإضافي – izofiy birikmalar.

Asarning lisoniy tahlili jarayonida shuni kuzatish mumkinki, dunyo tomonlariga nisbatan mualliflar aynan arab tilidagi lug’aviy birliklarni qo’llaydi. Shu bilan birga, “o’ng” va “chap” so’zlari bilan bir qatorda ularning arabcha variantidan ham keng foydalaniladi.

“Jonib” so’ziga arab tilshunoslari shunday ta’rif beradilar:

“الجانِب – الناحية و الجهة، و يقال هو جانب الشيء أي ناحيته

جانِب – leksemasining ikki bir-biri bilan deyarli o’xshash ma’nolari mavjud bo’lib, yuqoridagi asardan olingan parchada birinchi ma’no, ya’ni “taraf, tomon” nazarda tutilgan. Shunisi ahamiyatliki, muallif bunga yaqin “yo’nalish” sememasidan ham o’rinli foydalanadi:

Ba’zi o’rinlarda “جانِب” so’zining siniq ko’plik shakli ham beriladi.

O’zga tillardan o’zlashgan so’zlardan bu qadar samarali foydalana olish asar tilini boyitish bilan birga, uning emotsional-ekspressivligini oshirishga yordam beradi.

¹ Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоетикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 20.

² Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎзМЭ, 2002. – Б. 33.

Matnda kelgan makonga doir arabiy birliklar bu bilan cheklanib qolmaydi. Ular orasida bugungi kunimizda ham ishlatiladiganlari mavjud. Ayrimlari asl arab tilida anglatgan ma'nosi bilan ko'chgan bo'lsa, boshqa birlari ma'no o'zgarishi bilan o'zlashgan.

Bir tildan ikkinchi tilga yangi so'zlar o'zlashish jarayonida ularda qator o'zgarishlar yuz berishi kuzatiladi. Bular morfologik, fonetik, semantik va grafik o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Jumladan, arab tilidagi "ما بين" turg'un birikmasi arab tilida jumla tarkibida bir qator leksik va semantik vazifalarni o'zida mujassam etadi. Bu birikmadan arablar quyidagi ma'nolarni ifoda etishda foydalanadilar:

- Ikki makon oralig'ini tasvirlash uchun: ما بين المنزل والمدرسة
- Belgilangan ma'lum bir vaqt oralig'ini ifodalash uchun: ما بين الفجر والشروق
- Taqqoslash va farqlash uchun: ما بين العلم والجهل فرق كبير

Aynan shu birlik turkiy tilga arab tilidagi asl ma'nosi bilan, ya'ni "orasida", "o'rtasida" kabi ma'nolarda o'zlashganligi ixtilofli masala.

Makonni bildiruvchi birliklarni tadqiq etishning badiiy matn lisoniy tahlilida o'ziga xos vazifalari mavjudligi asardan olingan parchalar misolida ushbu faslda ko'rib chiqildi. Makonga doir birliklar nafaqat voqea-hodisalar yuz bergan joy xususida ma'lumot beradi, balki bu so'zlar asar tilini boyitib, muallif va o'quvchi o'rtasida majoziy bir ko'priq-bog' hosil qiladi.

Xususan zamon va makonni bildiruvchi so'zlarning lingvopoetik xususiyatlarini o'rganish ham o'zbek, ham arab tillarning tafakkur va ma'no evolutsiyasini ochib berishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Aktas O. Arapcada durum zarflari. – Istanbul: Mecmua, 2022.
2. Mamaziyayev O. Poetik nutqda gradatsiya. – Toshkent: Fan, 2017.
3. Yildirim T. Arap dilinde fiil, zaman, gorunum. – Ankara: Ilahiyat, 2025.
4. Йўлдошев М. Бадий матн лингвopoетикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 20.
5. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎзМЭ, 2002. – Б. 33.
6. أبو منصور الثعالبي. فقه اللغة. – القاهرة, 2001.